



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2023- yil
yanvar-sentabr*





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **2858,7** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **52,2** ming kishiga yoki **1,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1035,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1823,7** ming kishi (**63,8 %**) ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 142,2 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 200,0 ming kishi.

Doimiy aholi soni



Tabiiy o'sish



Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar joylarda



1035,0 ming kishi

Qishloq joylarda




1823,7 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi


2023- yil 1- oktabr holatiga

Erkaklar




1446,4 ming kishi

Ayollar



1412,3 ming kishi





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2789,3	2858,7	102,5
Termiz sh.	194,1	200,0	103,0
tumanlar:			
Oltinsoy	186,9	191,3	102,4
Angor	139,6	142,9	102,4
Bandixon	80,2	82,4	102,7
Boysun	121,4	123,9	102,1
Muzrabot	149,5	152,8	102,2
Denov	407,0	417,6	102,6
Jarqo'rg'on	230,7	236,8	102,6
Qumqo'rg'on	247,7	253,9	102,5
Qiziriq	120,6	123,3	102,2
Sariosiyo	221,1	226,4	102,4
Termiz	81,7	84,1	102,9
Uzun	182,2	186,6	102,4
Sherobod	205,0	209,6	102,2
Sho'rchi	221,6	227,1	102,5

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023- yil 1- oktabr holatiga, eng ko'p aholi soni Denov tumanida 417,6 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 253,9 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 236,8 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 82,4 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 8,0 ming kishi (2,0 %) va Qumqo'rg'on tumanida 4,7 ming kishini (1,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 4,7 ming kishi (2,0 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,7 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.


Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2023- yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumotlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi



Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-sentabr)

	kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2022- yil	2023- yil	o'sish, kamayish, +,-	2022- yil	2023- yil
Tug'ilganlar	59 729	65 353	5 624	28,9	30,8
O'lganlar	10 427	10 575	148	5,0	5,0
Nikohlar	16 871	15 276	-1 595	8,2	7,2
Ajralishlar	2 075	2 213	138	1,0	1,0
Ko'chib kelganlar	7 372	7 817	445	3,6	3,7
Ko'chib ketganlar	10 564	10 347	-217	5,1	4,9

Tug'ilish. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 65,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 30,8 promilleni tashkil etdi hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega ko'payganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 28,9 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bola:

31,4 ming kishi



O'g'il bola:

34,0 ming kishi




SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 65,4 mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar 34,0 ming kishini, qiz bolalar 31,4 ming kishini tashkil etadi.

Hududlar kesimida tug'ilganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, (1- oktabr holatiga, kishi)

	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati %
Surxondaryo viloyati	59 729	65 353	109,0
Termiz sh.	4089	4042	99,0
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	3945	4332	110,0
Angor	2894	3137	108,0
Bandixon	1881	2099	112,0
Boysun	2407	2664	111,0
Muzrabot	3153	3283	104,0
Denov	8926	10007	112,0
Jarqo'rg'on	5091	5868	115,0
Qumqo'rg'on	5520	5909	107,0
Qiziriq	2613	2830	108,0
Sariosiyo	4479	4800	107,0
Termiz	1767	2116	120,0
Uzun	3820	4272	112,0
Sherobod	4202	4662	111,0
Sho'rchi	4942	5332	108,0

Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2023- yil yanvar-sentabr)




Tabiiy o‘sish. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi 54,8 ming kishini (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 49,3 ming kishi) tashkil etdi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 2023- yil yanvar-sentabr

Jamiga nisbatan ulushi,
% da



Vafot etganlar. 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 10,6 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi, 2022- yilning mos davriga 5,0 promille bo'lgan.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 10,6 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 63,1 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,8 % i xafvli o'simtalardan, 3,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 2,9 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 9,1 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,4 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 14,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(1- oktabr holatiga)

Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
Surxondaryo viloyati	10 427	10 575	148
Termiz sh.	776	818	42
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	703	717	14
Angor	660	606	-54
Bandixon	339	339	0
Boysun	442	484	42
Muzrabot	451	531	80
Denov	1253	1453	200
Jarqo'rg'on	910	910	0
Qumqo'rg'on	977	858	-119
Qiziriq	470	557	87
Sariosiyo	620	616	-4
Termiz	329	319	-10
Uzun	718	643	-75
Sherobod	922	852	-70
Sho'rchi	857	872	15



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(yanvar-sentabr)**



Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
Surxondaryo viloyati	16 871	15 276	-1 595
Termiz sh.	1171	945	-226
tumanlar:			
Oltinsoy	1004	1030	26
Angor	852	755	-97
Bandixon	501	464	-37
Boysun	672	620	-52
Muzrabot	816	769	-47
Denov	2528	2289	-239
Jarqo'rg'on	1714	1445	-269
Qumqo'rg'on	1618	1393	-225
Qiziriq	707	619	-88
Sariosiyo	1235	1151	-84
Termiz	516	542	26
Uzun	1041	913	-128
Sherobod	1103	998	-105
Sho'rchi	1393	1343	-50



Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2023- yil yanvar-sentabr)





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi**
(yanvar-sentabr)


Hududlar	2022- yil	2023- yil*	O'sish sur'ati +:-
Surxondaryo viloyati	2 075	2 213	138
Termiz sh.	215	251	36
tumanlar:			
Oltinsoy	95	129	34
Angor	111	117	6
Bandixon	39	61	22
Boysun	62	94	32
Muzrabot	110	132	22
Denov	281	341	60
Jarqo'rg'on	191	167	-24
Qumqo'rg'on	153	157	4
Qiziriq	84	80	-4
Sariosiyo	203	172	-31
Termiz	83	83	0
Uzun	172	134	-38
Sherobod	162	159	-3
Sho'rchi	114	136	22

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan eng ko'p o'sish Oltinsoy tumani (0,2 promillega), Boysun tumani (0,3 promillega), Denov tumani (0,2 promillega) ro'y berdi.

Aksincha kamayish Uzun tumanida (-0,3 promillega) tumanida kuzatildi.

Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti


(2023- yil yanvar-sentabr kishi, promille)




Aholi migratsiyasi (kishi)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,5 ming kishi bo'lib, 2022- yilning mos davrida minus 3,2 ming kishi bo'lgan.

2022- yil
yanvar-sentabr



2023- yil
yanvar-sentabr





SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (2023- yil yanvar-sentabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko'chib kelganlar soni	Ko'chib ketganlar soni	Migratsiya saldosi
Surxondaryo viloyati	7 817	10 347	-2 530
Termiz sh.	2589	1418	1 171
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	191	445	-254
Angor	515	490	25
Bandixon	179	271	-92
Boysun	278	509	-231
Muzrabot	320	650	-330
Denov	530	1042	-512
Jarqo'rg'on	465	770	-305
Qumqo'rg'on	471	816	-345
Qiziriq	290	597	-307
Sariosiyo	256	611	-355
Termiz	798	762	36
Uzun	254	595	-341
Sherobod	382	682	-300
Sho'rchi	299	689	-390



SURXONDARYO VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel: (76) 225-65-60